



MATYOQUB QO'SHJONOV TADQIQOTLARIDA ABDULLA ORIPOV

IJODI

Sharipova Lobar

Urganch davlat universiteti

2-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taniqli munaqqid Matyoqub Qo'shjonovning shoir Abdulla Oripov ijodi tadqiqi o'z ifodasini topgan. Tadqiqotni Matyoqub Qo'shjonov "Abdulla Oripov" asari asosida tadqiq qiladi. Asarda shoirning yoshligidan katta shoir bo'lib yetishguniga qadar bo'lgan davr qalamga olingan.*

Kalit so'zlar: *shoir, ijod, tabiat, xalq, Orif bobo, muxbir, inson, harakter, archa, she'r, tog', iste'dod, she'riyat, yoshlik, Moskva, Kreml, quruvchi, gultoj, hayot falsafasi, faylasuv*

XX asrning dahosi bo'lib tanilgan, yurtimizning chekka qismidan, Qashqadaryoning Qo'ng'irtov etagida joylashgan Neko'z qishlog'ida voyaga yetgan, o'zining falsafiy fikrlari bilan haligacha kitobxonlar dilida va tilida yashayotgan ulug' shoirimiz Abdulla Oripov nazmiga razm solamiz. Bilamizki, jamiyatimizda Abdulla Oripovning she'rlarini eshitmagan, bilmagan inson yo'q. Shu paytgacha shoir ijodi ko'plab tahlillarga tortilib kelindi. Bu tahlillar orasida ijobiylari ham salbiylari ham bor, albatta. Adabiyotshunoslar o'z tadqiqotlarida Abdulla Oripovning ijodini har tomonlama o'rganganlar. Bu maqolada taniqli adabiyotshunos, qalami o'tkir munaqqid Matyoqub Qo'shjonovning tadqiqotlariga to'xtalamiz. Tanqidchi Suvon Meli bilan birgalikda tayyorlagan "Abdulla Oripov" nomli kitobida shoir ijodi haqida o'zining qarashlarini yoritib beradi.

Muallif asarida Muxbir Farmon Omonov bilan Nekoz qishlog'iga qilgan safari bayonini keltiradi. Safar davomida Abdulla Oripovning padari b'olmish Orif bobo huzurida b'olganliklari, uning chinakam insoniylik fazilatlarini, vatani uchun qilgan yaxshiliklarini keltiradi. Haqiqatan ham bu insonni chin inson



sifatida bilishimiz mumkin. Chunki kamdan kam inson óz nafsidan kechib, ózining mehnati evaziga kelgan beminnat oshni boshqaga ravo kóra oladi, undan kóra atrofidagi insonlarga, yurtiga yaxshilik qilishni ózining chinakam burchi deb biladi. Matyoqub Qóshjonov asaridagi 1-bobni Orif boboga bağishlaydi. Abdulla Oripovdagi vatanparvarlik, insoniylik, xalqiga yordam qólini chózish singari ezgu fazilatlarida otasining, oila muhitining órni borligini ta'kidlab ótadi. Keyingi boblarda Abdulla Oripovning ijod yóliga kirib kelishi, ilk she'rlari haqida gap boradi.

Abdulla Oripovning talabalik yillarida yozgan "Archa" she'ridagi falsafasi, ma'noning teranligi tanqidchini óziga jalb qiladi. She'rning mazmuni shunday: toshyónar usta toshdan tegirmon yasamoqchi bólib, qoyadan tosh yónib olayotgan paytda tosh pastga qulaydi-yu endigina bóy chózayotgan yoshgina archa ustiga tushadi. Oradan vaqt ótib usta yana ósha joyga keladi va kózi boshida toshi bor katta archaga tushadi. She'rda archaning boshidagi toshni shoir "gultoj" deya chiroyli tashbeh bilan keltiradi.

Adabiyotshunos " Abdullaning hali studentlik choğlarida yozilgan bu she'ri uchun tanlangan voqeada bir oz sun'iylik sezilsa ham, unda katta ma'joziy ma'no bor: hayotga intilayotgan buyuk tabiat, boshiga har qancha kulfat tushmasin, "yengaman, ósaman, kórkam bólaman", deydi. Bu yosh shoir sodiq bólgan hayot falsafasi, tabiat falsafasi edi"¹, - deya she'r haqida ózining fikrini bildiradi. Darhaqiqat, bu she'r qalblarni larzaga, ta'sirchan insonning kóziga yosh ham keltiradi.

Matyoqub Qóshjonov kitobida "Iste'dodning tuğilishi" bobiga shoirning ilk havaskorlik she'rlarini kiritadi va yana bir qiziq voqeani ham keltirib ótadi. Bir kuni Abdulla Oripov dóstlari bilan Qashqadaryo viloyatining bir qancha tumanlariga safar uyushtiradi. Bir qishloqqa borganda tuman rahbari A.Oripovning muhlisi bólad, she'rlarini yoddan aytib beradi. Shoirdan ustozingiz kim deb sóraganda, Abdulla Oripov she'riyatga umuman aloqasi yóq quruvchini nomini keltiradi. Nimaga deganda shoir ilk

¹ Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Oripov, T., "Ma'naviyat", 2000, 8-bet



she'rlarini ósha quruvchiga aytib berardi. Shoir quruvchiga Moskva, Kreml haqidagi she'rini óqib berganda, quruvchi "she'rlaring yaxshi-yu, ammo u shaharlarni ôzing borib kórganmisan"² - deydi. Shoir ósha voqeadan keyin inson óz kózi bilan kôrgan narsasini, ózi bilgan, anglagan narsasini qoғozga tushirish kerakligini tushunadi. Bu hozirgi havaskor shoirlar uchun ibrat olgulik voqea hisoblanadi.

Abdulla Oripov ijodini ôrganish davomida Matyoqub Qóshjonov uning fikrlash doirasi kengligini, har bir hodisadan óziga ibrat olishini ta'kidlab ôtadi.

Muallif ijodkor lirikasini tahlil qilar ekan, she'rda sózlarning qóllanish shakli, ifoda yósini, shoirning qay órinda nima demoqchiligini birma-bir injalab ôrganadi.

Muallif asarda Abdulla Oripovning ijodini bir tekisda tuzadi. Dastlabki boblariga shoirning ota uyini, yoshlik paytlarini, she'riyatga ilk qadami, sóngra bugungi kungacha yozilgan ba'zi she'rlarining tahlillarini beradi. " Abdulla Oripovning bir yaxshi odati bor edi, she'r yozdimi, uning qachon, qayerda yozilganini ham shu payt yozib ketardi"³- deydi muallif o'z so'zi davomida.

Muallif o'z so'zini shunday izoxlar bilan berib o'tadi. Abdulla Oripov shoirlik ilmida ham, adabiyot nazariyasi sohasida ham kuchli mutaxassisligini asar davomida yoritib beradi.

Nahotki dunyoda haqsizlik mangu,

Nahotki odamzod qilingandir oq?!

Nahot o'sha Freyd haq bo'lsa, yoxu,

Nahot qotil bo'lsa o'sib chaqaloq?!

² Shu manba. 11-bet

³ Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Oripov, T., Ma'naviyat, 2000, 13-bet



Bu yuqoridagi she'r shoirning "Yuzma-yuz" she'rining oxirgi bandidan olingan. Bunda jamiyatdagi "boshqaruvchilar va bo'ysunuvchilar" hayoti tasvirlangan. Mazlum xalq ustidan o'z hukmronligini o'rnatgan hukumat odamlari haqida, ularning jamiyatda yuritayotgan adolatsiz siyosati haqida kuyinib yozilgan katta syujetli asar. She'rda asosan o'zbek xalqining mustamlaka davridagi hayoti hikoya qilingan, balki, bizga qo'shni bo'lgan turkiy davlatlarning ham hayot tarzi aks ettirilgan. U paytda indamay, barcha zulmga chidab, bo'ysunib yurgan aholining boshi qora mehnatdan chiqmagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Matyoqub Qo'shjonov shoir hayoti va ijodi bo'yicha izlanish olib borarkan, fikrlari aniq va to'g'ri yoritilgan. Abdulla Oripov she'riyati barcha yosh kitobxonlarga ibrat bo'la oladigan ijod maktabini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Qo'shjonov, S. Meli. Abdulla Oripov. T: "Ma'naviyat" nashriyoti. 2000
2. A. Oripov. Extiyoj farzandi. T: "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1998
3. A. Oripov. Yillar armoni. T: G'afur G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1984